

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA PAST O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILAR
BILAN ISHLASHDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK XATOLARI**

Xolmirzayeva Zulayho

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchilarning pedagogik xatolari haqida ma'lumot beriladi.*

Key words: *dars, boshlang'ich ta'lim, ta'lim tizimi, bilim darajasi, sinf, DTS, o'qituvchi rahbarligi, tanbeh bermoq*

Boshlang'ich ta'lim — bu maktabgacha ta'imdanda keyingi muhim va ahamiyatli ta'lim bosqichi hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchilar savod chiqaradilar va ta'limning dastlabki bosqichidagi muhim ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Ushbu bosqich odatda 6-7 yoshdan boshlanadi.

Boshlang'ich ta'lim o'z ichiga 1-sinf dan 4-sinf gacha bo'lgan sinflarni oladi. Ushbu davrda bolalar asosiy bilimlarni: o'qish, yozish, matematik hisoblash, atrof-muhit haqida dastlabki tushunchalarni o'zlashtiradilar.

Boshlang'ich ta'lim bolalarning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari ushbu bosqichda o'quvchilar soddadan murakkabga qarab, turli ma'lumotlarni o'zlashtira boshlaydi.

Boshlang'ich ta'lim yuqorida aytib o'tilganidek muhim bosqich sanaladi va o'qituvchi-o'quvchi hamkorligida dars deb ataluvchi ta'limni tashkil etish shaklidan foydalaniladi. Dars-deb bevosita o'qituvchining rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim mashg'ulotiga aytiladi. Dars - o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shaklidir. Dars - o'quv ishlarining markaziy qismidir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan sinf - dars tizimi quyidagicha olib borilmoqda:

1. Dars mashg'uloti asosan 45 minutga mo'ljallangan bo'lib, qat'iy jadval orqali olib boriladi.

2. Har qaysi sinf yoshi va bilimiga ko'ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruhiga ega bo'ladi. (bir yilning 1-yanvaridan toki 31-dekabr gacha)

3. Dars bevosita o'qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi.

4. Dars o'tilayotgan materialning mazmuniga qarab xilma - xil usullar orqali olib boriladi. Ta'lim tizimining bir qismi sifatida, albatta, tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun zamin yaratadigan qilib tashkil etiladi.

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida buyuk Chex pedagogi Ya. A. Komenskiy (1592 - 1670) tarixda birinchi bo'lib maktab ta'limida sinf - dars tizimini yaratgan. Ya. A. Komenskiyning ta'limni tashkil qilish haqidagi qarashlari bir qator jiddiy qarshiliklarga uchragan bo'lsa ham g'arb mamlakatlariga juda ham tez tarqaldi. Ta'limni tashkil qilishning birdan - bir shakli deb e'tirof etilgan . Sinf - dars tizimi sharq mamlakatlariga, jumladan Markaziy Osiyodagi eski musulmon maktablariga tadbiiq bo'lmadi.

Ularda oktabr to'ntarilishiga qadar o'rta asr maktablariga⁹ xos ta'lim tizimi davom etib keldi. Bir o'qish xonasida 6 yoshdan 15- 16 yoshgacha bo'lgan bolalar guruhi bilan bir vaqtda mashg'ulot olib borilar edi. Shuningdek, bir o'qish xonasidagi o'quvchilarning bilim darajasi ham turlicha bo'lar edi.

Hozirgi kunda respublikamizda ta'limning oldiga qo'yilgan talab va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda maktab ta'limini tashkil etishning, dars turlarining yangidan - yangi shakllari yaratilmoqda. Sinf - yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan ma'lum miqdordagi o'quvchilar guruhidir. Dars deb bevosita o'qituvchining rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim mashg'ulotiga aytiladi. Dars - o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shaklidir.

Dars - o'quv ishlarining markaziy qismidir. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan sinf - dars tizimi quyidagi tashkiliy shakllarda olib borilmoqda:

1. Dars mashg'uloti asosan 45 minutga mo'ljallangan bo'lib, qat'iy jadval orqali olib boriladi. Har bir dars ma'lum tartiblangan texnologik bosqichdan tashkil topgandir. U quyidagicha:

Darsning texnologik bosqichlari.				
T/r	Dars bosqichi.	Vaqt.	O'qituvchi	O'quvchi.
I.	Tashkiliy qism.	3-daqiqa	1. Sinfni darsga tayyorlaydi. 2. Davomatni tekshiradi. 3. O'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtiradi.	Darsga tayyorlanadi.
II.	O'tilgan mavzuni mustahkamlash va xulosalash.	12 daqiqa	Uyga berilgan topshiriqlarning daftarga bajarilishini nazorat qiladi va turli metodlar asosida nazoratini o'tkazadi.	Daftardagi uy vazifalarini o'qituvchiga taqdim etadi. Uy vazifasini og'zaki hamda yozma bayon etishda ishtirok etadi.
III.	Yangi mavzu bayoni.	13 daqiqa	Yangi mavzuni e'lon qiladi, uning maqsadi, rejasini bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Mavzuni ko'rgazmali vositalar yordamida bayon qiladi.	Yangi mavzu bilan tanishadi, mavzu va dars rejasini daftarga yozib, mavzuni o'qituvchi hamkorligida o'zlashtiradi.
IV.	Yangi mavzuni mustahkamlash	12 daqiqa	Mavzu yuzasidan o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari mustahkamlanadi	Berilgan topshiriqlarni yakka va guruhlarda, hamkorlikda bajaradi.
V.	Darsni yakunlash.	5 daqiqa	O'quvchilar dars jarayonida erishgan ballarini izohli e'lon qiladi va uy vazifasini tushuntirib beradi.	Uyga vazifani yozib oladi va natijalarni kundalikga qo'ydiradi.

2. Har qaysi sinf yoshi va bilimiga ko'ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruhiga ega bo'ladi. Har bir sinfni bir yilda tug'ilgan o'g'il-qizlar jamoasi tashkil qiladi.

⁹ G'oziyev E. "Umumiy psixologiya" T - 2002. 2 G'oziyev E. "Pedagogik texnologiya masalalari" "Xalq ta'limi" T - 1999. 6- son. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1601 Uzbekistan www.scientificprogress.uz Page 845

3. Dars bevosita o'qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi.

4. Dars o'tilayotgan materialning mazmuniga qarab xilma - xil usullar orqali olib boriladi. Ta'lim tizimining bir qismi sifatida, albatta, tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun zamin yaratadigan qilib tashkil etiladi.

Sinfdagi hamma o'quvchilar ham bir xil ijobiy natija kasb etavermaydi. Ayniqsa, matematika fani boshqa fanlarga qaraganda biroz murakkab va qiyindek tuyiladi. Bir sinfda matematika fanidan 2 xil toifa shakllanib qoladi: yaxshi o'zlashtiruvchi va past o'zlashtiruvchi o'quvchilar. Yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash hech qachon o'qituvchiga muammo tug'dirmaydi, ammo, past o'zlashtiruvchilar har doim ham hammaga yoqavermaydi. Biroq, DTSning tegishli talablariga ko'ra o'qituvchi har bir o'quvchi bilan qo'ldan kelganicha shug'ullanishi lozim va o'quvchining kelajagi hech shubxasiz o'qituvchiga bog'liq.

Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan quyidagicha shug'ullanish yaxshi samara beradi.

Qilinadigan xato: Past o'qiydigan o'quvchini hammaning yonida kamsitish va har doim yomon baho qo'yish. Ko'plab o'qituvchilar past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni huddi taqdirning unga qilingan jazosi sifatida ko'radi va odatda barcha o'quvchilarning oldida yaxshi o'zlashtira olmayotganidan nolib, o'quvchiga yomon munosabatda bo'ladi va hamma bilan bir xil berilgan mavzuni tushuna olmagan uchun unga tanbeh beradi .

Bu juda yomon pedagogik holat hisoblanadi va bu orqali o'quvchi tushkunlikka tushib qoladi, o'zlashtirishdan bezillab, hattoki o'sha o'qituvchini ham yomon ko'rib qoladi, eng yomoni har darsda dakki eshitishini bilib, maktabga kelishni ham xohlamay qoladi. Bunday holat sababli o'quvchi o'zlashtirishni ham xohlamay qoladi.

Yechim: O'quvchiga har doim yaxshi muomalada bo'lish lozim, u qanday o'zlashtirishidan qat'iy nazar. O'quvchining yaxshi o'zlashtira olmagan ko'plab jihatdan o'qituvchiga ham bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham past o'zlashtiruvchisi bo'lgan sinf o'qituvchilari birinchi navbatda bunday holatlarda o'zlarini aybdor deb bilishlari lozim. Pedagogik mahoratlarini oshirib, o'zlari va o'quvchilari ustida qattiq shug'ullanishlari darkor.

Birinchi navbatda boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchisining qaysi fandan va qaysi mavzulardan qiynalayotganini aniqlab olishi va shu asosida reja tuzib olishi kerak , bir o'quvchi hamma fandan bir xil torta olmasa, u holda unda tibbiy muammolar ham bor bo'lishi mumkin yoki u o'qituvchining darsiga e'tibor qaratmayotgan bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bola gul, unga yomon munosabatda bo'lishga va bilim bermaslikka hech bir pedagogning haqqi yo'q.

FOYDALANILGAN ADABLAR RO'YXATI:

1. G'oziyev E. "Umumiy psixologiya" T - 2002. 2 G'oziyev E. "Pedagogik texnologiya masalalari" "Xalq ta'limi " T - 1999. 6- son. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1601 Uzbekistan www.scientificprogress.uz Page 845

2. Uzlusiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda «Uzlusiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1059-son qaroriga 1-ILOVA.

3. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.- T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016.-279b.

4. Qodirova Z. O'quvchilarda tolerantlikni rivojlantirishning ba'zi masalariga doir. // J. Falsafa va huquq. - T., 2008. -№. - B.42.
5. R.A Mavlonova, N.X.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.J.Abdullaeva "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" .-T.: 2015 y.
6. Rustamaliyev, Mirjalol Hayrullo O'G'Li. 1.K.Qosimova, S.Matjonov Ona tili o'qitish metodikasi - T: Toshkent «NOSIR» nashriyoti 2009
7. Q. Abdullayeva, M. Ochilov, K. Nazarov, S. Fuzailov, N . Bikboyeva Boshlang'ich maktab darsliklarini yaratish mezonlari T.: 1994.
8. A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. - T.: „O'qituvchi", 1992. 4. Wikipedia
9. Ziyoz.uz